e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/zrfen549

HIND AXLOQIY TA'LIMOTLARINING ISLOM FALSAFASIGA TRANSFORMATSIYALASHUVI: ABDULLOH IBN MUQAFFANING "KALILA VA DIMNA" TARJIMASI

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li[1]
Abduqayumov Asror[2]

[1]Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i, (PhD),
[2]Termiz davlat universiteti DSc doktoranti.
e-mail: sarvarsaid@bk.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-0353-7455
e-mail: asrorhistory@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-2799-5464

Annotatsiya.

Musulmon falsafasi taraqqiyotida nafaqat musulmon allomalarining boy ilmiy-falsafiy qarashlari, balki yunon, fors va hind axloqiy-madaniy qarashlarining ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, VIII asrda fors mutafakkiri Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan hind xalqining "Panchatantra" asari asosida shakllangan "Kalila va Dimna"ning arab tiliga tarjima qilinishi ushbu ta'sirning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada alloma tomonidan "Kalila va Dimna" asarining tarjima qilinishi tarixi, uning axloqiy mohiyati hamda islom sivilizatsiyasi va axloqiy tafakkur tarixidagi o'rni yoritilib, ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: musulmon falsafasi, hind sivilizatsiyasi, axloqiy qarashlar transformatsiyasi, axloq, madaniyat, siyosat, oqilona boshqaruv.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНДИЙСКИХ ЭТИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ В ИСЛАМСКУЮ ФИЛОСОФИЮ: ПЕРЕВОД «КАЛИЛЫ И ДИМНЫ» АБДАЛЛАХОМ ИБН АЛЬ-МУКАФФОЙ

Саидов Сарвар Атабулло угли[1]
Абдукаюмов Асрор[2]

[1]Международный научно-исследовательский центр Имама Термизи, начальник отдела научных исследований, (PhD)
[2]Термезский государственный университет докторант (DSc)

Аннотация.

В развитии мусульманской философии важную роль сыграли не только богатые научно-философские воззрения мусульманских мыслителей, но и влияние греческих, персидских и индийских этических и культурных традиций. Особенно значимым событием стал перевод на арабский язык в VIII веке персидским мыслителем Абдаллахом ибн аль-Мукаффой произведения «Калила и Димна», восходящего к древнеиндийскому сборнику «Панчатантра», что способствовало дальнейшему усилению данного влияния. В статье рассматриваются история перевода произведения «Калила и Димна», осуществлённого мыслителем, его нравственная сущность, а также роль в истории исламской цивилизации и этической мысли. На основе проведённого анализа обосновывается значение данного произведения в процессе взаимодействия индийских этических учений и исламской философской традиции.

Ключевые слова: мусульманская философия, индийская цивилизация, трансформация этических воззрений, нравственность, культура, политика, рациональное управление.

THE TRANSFORMATION OF INDIAN ETHICAL TEACHINGS INTO ISLAMIC PHILOSOPHY: ABDALLAH IBN AL-MUQAFFA'S TRANSLATION OF KALILA WA DIMNA

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li[1]
Abduqayumov Asror[2]

[1]Imam Termizi International Scientific Research Center, Head of the Scientific Research Department, (PhD).
[2]DSc Doctoral Researcher at Termez State University.

Abstract.

The development of Islamic philosophy was significantly influenced not only by the rich scientific and philosophical ideas of Muslim scholars but also by Greek, Persian, and Indian ethical and cultural traditions. A particularly important event was the eighth-century Arabic translation of Kalila wa Dimna, a work derived from the ancient Indian Panchatantra, by the Persian thinker Abdallah ibn al-Muqaffa. This translation contributed to the further dissemination and influence of Indian ethical thought within Islamic intellectual culture. The article examines the history of Ibn al-Muqaffa's

ISSN 3060-5059 (Online)

translation of Kalila wa Dimna, the ethical essence of the work, and its role in the history of Islamic civilization and moral philosophy. The study highlights the significance of this literary and philosophical heritage in the transformation and integration of Indian ethical teachings into the Islamic philosophical tradition.

Keywords: Islamic philosophy, Indian civilization, transformation of ethical thought, ethics, culture, politics, rational governance.

Kirish. VIII asrda musulmon falsafasi ilg‘or sivilizatsiyalar yutuqlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida turli xalqlarning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari bilan tanisha boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, turli falsafiy ta’limotlarning o‘zaro sintezlashuviga va betakror ilmiy-falsafiy g‘oyalarning maydonga kelishiga xizmat qildi. Bu jarayonda tarjimonlar faoliyatining ahamiyati beqiyosdir. Tarjimonlar faoliyati natijasida yunon falsafasi, xususan, Platon va Aristotelning falsafiy asarlari, fors siyosatnomalari, hind xalqining betakror axloqiy qarashlarini o‘zida jamlagan “Kalila va Dimna” dostoni arab tiliga tarjima qilindi. Ushbu tarjimonlar orasida asli forslardan kelib chiqqan Abdulloh ibn Muqaffa (724–759-yillar)ning roli beqiyosdir. Abdulloh ibn Muqaffa islom madaniyatining boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro aloqalari yuksalgan davrda yashab, tarjimonlik faoliyatiga hissa qo‘shgan hamda bu orqali o‘zidan keyingi olim va tadqiqotchilar faoliyatiga adabiy-madaniy jihatdan ta’sir ko‘rsatgan. Alloma faqat bitta sohada emas, balki hikmat, tarix, huquq, din va falsafa kabi turli sohalarga oid matnlarni tarjima qilishda mohir tarjimon hisoblangan. U Abbosiy amaldorlari va davlat mulozimlari bilan mustahkam aloqalarga ega bo‘lib, Sosoniylar davriga oid asarlarni arab tiliga tarjima qilish orqali Abbosiylarning davlatchilik tizimiga Sosoniylar davlatchilik an’analarini olib kirish masalasiga o‘z e’tiborini qaratdi. U yashagan davr islom tarjima san’ati rivojidagi muhim bosqich bo‘lib, uning tarjimalarida zamonning xususiyatlari, shu jumladan, forslar muhim rol o‘ynagan sivilizatsiyalar va madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi tarixiy ma’lumotlar aks etgan. Ibn Muqaffa o‘z davridagi siyosiy va ijtimoiy muammolar haqida batafsil to‘xtalib, ushbu muammolar yuzasidan o‘z fikrlarini ilgari suradi hamda biografik tarjimalarida ushbu masalalarni ham eslab o‘tadi.

Ibn Muqaffaning tarjima ilmi rivojiga qo‘shgan eng katta hissasi uning hind xalq dostoni “Kalila va Dimna” borasidagi tarjimasidir. Hindlarning “Panchatantra” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu asari Ibn Muqaffa tomonidan pahlaviy tilidan arab tiliga “Kalila va Dimna” nomi bilan tarjima qilingan [5: 14]. U mazkur asarni faqatgina tarjima qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki uni musulmon kitobxonining dunyoqarashiga moslashtirishga harakat qilgan. Masalan, kitobning muqaddimasi islom manbashunosligiga xos bo‘lgan “Bismillahir rohmanir rohiym” iborasi bilan boshlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Kalila va Dimna” dostoni hayvonlar tilidan naql qilingan, nafs tarbiyasi, ijtimoiy axloqni isloh qilish yo‘l-yo‘riqlari, jamiyat a’zolarining o‘zaro muomala madaniyati, hukmdorlik odobi kabi masalalar yoritilgan hikoyalar majmuasidir. Ibn Muqaffa “Kalila va Dimna” tarjimasida keltirishicha, mazkur kitobning hind tilidan pahlaviy tiliga tarjima qilinishi Sosoniy hukmdori Xusrav Anushervonning tabibi Burzoye nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tabib hukmdor topshirig‘i bilan bir qancha kitoblar qatorida “Kalila va Dimna”ni Fors o‘lkasiga olib kelgan. “Kalila va Dimna”ning tabib Burzoye tomonidan pahlaviy tiliga qilingan tarjimasi VIII asrgacha mavjud bo‘lgan. Keyinchalik esa yo‘qolib ketgan [1: 74]. Shuning uchun ham to‘la ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu asarning turli tillarga qilingan tarjimalari uchun asos sifatida Ibn Muqaffaning tarjimasini keltirish mumkin. “Kalila va Dimna”ning Ibn Muqaffa tomonidan arab tiliga qilingan tarjimasida “Burzoyening Hind diyoriga yuborilishi” degan bob bo‘lib, ushbu bobda Burzoyening Hindistonga borishi va kitobni qo‘lga kiritish borasidagi mashaqqatlari haqida ma’lumot keltirilgan.

Al-Qiftiy “Ixborul ulamo” asarida ham Abdulloh ibn Muqaffaning mazkur asar borasidagi tarjimasini e’tirof etib, Abdulloh ibn al-Muqaffa hindlarning “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan asarini tarjima qilgan, deydi.

Ibn Abu Usaybia o‘zining “Uyunul anba fiy tabaqot atibbo” asarining I jildi 308-sahifasida Burzoye tarjimasi borasida fikr yuritadi. Mazkur asarda muallif shunday yozadi: Burzoye “Kalila va Dimna” kitobini Hind diyoridan Anushervon bin Qubod saroyiga olib kelgan va kitobni hind tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik ushbu kitobni Islom olamida Abdulloh ibn Muqaffa fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Tahqiq ma li-l-Hind min ma’qula maqbula fi-l-aql av marzula” (مقولة من للهند ما تحقيق مرذولة أو العقل في مقبولة – Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi) asarida hindlarning mashhur asarlariga to‘xtalar ekan, “Kalila va Dimna” kitobi va uning Ibn Muqaffa tomonidan qilingan tarjimasi haqida shunday yozgan: “Hindlarning “Panchatantra” nomi bilan mashhur bo‘lgan asari fors tiliga, undan esa arab tiliga “Kalila va Dimna” nomi bilan tarjima qilingan bo‘lib, ushbu kitobni Abdulloh ibn Muqaffa “Burzoye” degan bobni qo‘shgan holda arab tiliga tarjima qilgan” [2: 111].

Muhammad G‘ufroniy Xurosoniy “Kalila va Dimna”ning Ibn Muqaffa tomonidan qilingan tarjimasiga to‘xtalib, shunday yozadi: “Kalila va Dimna”ning Ibn Muqaffa tomonidan tarjima qilinishi arab adabiyotida hayvonlar tilidan qissanavislik ilmining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu esa axloqiy, ijtimoiy, siyosiy-falsafiy jihatdan benazir g‘oyalarning musulmon olamiga keng yoyilishiga olib keldi” [4: 21].

XII asrda G‘aznaviylar hukmdori Bahromshoh G‘aznaviyning munshiysi Nasrulloh Munshiy tomonidan “Kalila va Dimna” dostoni fors tiliga tarjima qilingan. Nasrulloh Munshiy tarjima asnosida o‘zidan bir qancha masallar va baytlar ham qo‘shgan. Munshiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima “Bahromshoh Kalila va Dimnasi” nomi bilan mashhur. Asar 761/1360-yilda Qul Mas’ud tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, Usmonli turk sultoni Murod I (1326–1389-yillar)ga tuhfa qilingan. XVI asrda esa “Kalila va Dimna” dostoni “Humoyunnoma” nomi bilan yana bir bor Soliho‘g‘li Ali tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, sulton Sulaymon Qonuniyga (1494–1566-yillar) taqdim qilingan. XVI asrda Boburiy hukmdor Jaloliddin Akbarning (1542–1605-yillar) vaziri Abul Fazl tomonidan “Kalila va Dimna” dostoni “I’yar ad-donish” (دانش عيار – Donishmandlik mezonlari) nomi bilan yana bir bor fors tiliga tarjima qilingan [6: 3].

ISSN 3060-5059 (Online)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida qo‘llaniladigan analiz, sintez, analogik tahlil, germenevtik tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ibn Muqaffa o‘z davriga xos bo‘lgan jamiyatdagi ko‘plab illatlar, siyosiy sohadagi va boshqaruvdagi ijtimoiy adolatsizliklarning guvohi sifatida “Kalila va Dimna” dostonini tarjima qilish orqali ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nuqsonlarni hayvonlar timsolida ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Alloma “Kalila va Dimna”ni tarjima qilish jarayonida xalifalar hamda xalq tafakkurining ijobiy tomonga o‘zgarishiga, dostondagi ilg‘or g‘oyalarning ta’sir ko‘rsatishiga umid bildiradi. Bu orqali xalifalar va ularning xizmatchilari uchun o‘ziga xos mukammal hayot tarzini targ‘ib qilib, ularda ezgu fazilatlarga nisbatan bevosita muhabbat uyg‘otishga harakat qilgan.

“Kalila va Dimna”ning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, kitobning asl nusxasi va pahlaviy tiliga qilingan tarjimasi hanuzgacha topilmagan. Kitobning Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan Abbosiylar xalifaligi davrida arab tiliga qilingan tarjimasi esa asarning butun dunyoda keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu tarjima asosida keyinchalik “Kalila va Dimna” dostoni yunon, fors, ibroniy, lotin, ispan, italyan, rus, turk, nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilingan.

Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan “Kalila va Dimna”ni tarjima qilish jarayonida bir bob qo‘shilgan bo‘lib, unda mutafakkir shunday fikrlarni ilgari suradi: “Ushbu “Kalila va Dimna” kitobi hind olimlari tomonidan tuzilgan asar bo‘lib, unda o‘zlarini ilhomlantirgan so‘z va masallarni keltirganlar” [6: 19].

Kitobga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu kitob hikmatlar va qiziqarli masallarni o‘zida jamlagan bo‘lib, mutafakkirlar unda ilgari surilgan hikmatlarga yuqori baho beradilar. Kitob haqida Abdulloh ibn al-Muqaffa shunday deydi: “Fors ahli hind tilidan fors tiliga ushbu kitobni tarjima qilib, unga tabib Burzoye haqidagi bobni qo‘shganlar. Ammo ushbu bobda kitobxon o‘qishni istagan ilmlar, ularning foydali jihatlari borasida mulohazalar keltirilmagan bo‘lib, biz mazkur bobga ushbu fikr-mulohazalarni qo‘shdik” [5: 119].

Ibn Nadim afsona va rivoyatlarni o‘z ichiga olgan hind kitoblari haqida so‘z yuritganda, shunday fikrni ilgari suradi: “Kalila va Dimna” kitobi 17 bobdan iborat. Ba’zi manbalarda esa uning boblari 18 ta deb keltirilgan. Ushbu kitobni Abdulloh ibn al-Muqaffa va undan boshqalar ham sharhlaganlar. Abon bin Abdulhamid al-Lohiqi va Ali bin Dovud ushbu kitobni she’riy uslubda tarjima qilganlar.

“Kalila va Dimna” borasida olimlar o‘rtasida turli ixtiloflar mavjud. Ba’zi olimlar guruhi mazkur kitobning hindlar tomonidan tuzilganligini tasdiqlaydi. Boshqa toifa olimlar esa asarning asl mualliflari sifatida forslarni e’tirof etadilar. Ikkala toifadagi olimlar ham asarning Ibn al-Muqaffa tomonidan tarjima qilinganligi borasida yakdil fikrdadirlar. Yana shunday bir toifa olimlar borki, ular asar Ibn al-Muqaffa tomonidan yozilgan degan fikrni ilgari suradilar.

Ibn Nadim “Fihrist”ning VIII bobida afsona va rivoyatlarni o‘z ichiga olgan kitoblarni tuzgan olimlarning ismlarini zikr qilar ekan, shunday deydi: “Qushlar va hayvonlar tilidan ertak va rivoyatlar hikoya qilingan kitoblar tuzgan olimlar Abdulloh ibn al-Muqaffa, Sahl bin Horun, Ali bin Dovud va boshqalardir. “Kalila va Dimna” kitobiga kelsak, ba’zi manbalarda ushbu kitobning hindlarga tegishli ekanligi ta’kidlanadi. Ba’zi olimlar ushbu kitobning forslar tomonidan tuzilganligini va keyinchalik hindlar ushbu kitobdan bahramand bo‘lganligini aytadilar. Yana bir guruh olimlar esa mazkur kitob donishmand Buzurgmehr tomonidan yaratilganligini ilgari suradilar” [3: 42].

Tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, Abdulloh ibn al-Muqaffaning “Kalila va Dimna”ni tarjima qilishining asl sababi uning jamiyatni isloh qilishga bo‘lgan intilishidir. Alloma o‘z davri jamiyatidagi ko‘plab nuqsonlar va siyosiy sohadagi erksizlikning guvohi bo‘ldi. Tabiiyki, u xalifa va uning atrofidagi a’yonlarni ochiqdan-ochiq tanqid qila olmas edi. Xalifa Mansur davrida uning mana shunday islohotchilik g‘oyalari ayni yetilgan davr edi. U o‘zi va xalifa o‘rtasidagi munosabatlarni Beydebe va Dibshilam o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga qiyosladi. Abdulloh ibn Muqaffa “Kalila va Dimna”ni tarjima qilish jarayonida hind va forslarda bo‘lgani kabi mazkur kitobdagi g‘oyalarning xalifalar va raiyat hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga umid qildi [8: 39].

Mutafakkir xalifa Mansurni davlat ishlarida qilichga suyanuvchi, unga qarshi bo‘lganlarga nisbatan shafqatsiz hukmdor sifatida tasavvur qilgan. Shu sababli uning “Kalila va Dimna” asarini tarjima qilishdan yana bir maqsadi ushbu kitobdagi g‘oyalar bilan xalifani tanishtirish hamda uning nuqsonlarini o‘ziga ko‘rsatishdan iborat edi.

XULOSA

“Kalila va Dimna” kitobining asosiy bahs mavzularidan biri sulton va voliylar faoliyati hamda ularning o‘zaro haq-huquqlari masalasiga qaratilgan. Shuningdek, kitobda do‘stlik va o‘zaro munosabatlarda amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq qoidalari, sulton yoki voliy xizmatiga kirmoqchi bo‘lganlar rioya qilishlari lozim bo‘lgan xatti-harakatlar, yolg‘on, makr va hiyladan uzoq bo‘lish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan amallar borasida mulohazalar keltirilgan. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, saltanat mulozimlarining ushbu kitobdan ulkan foyda olishlari tabiiy holdir. Ushbu kitobda, shuningdek, do‘stlik, do‘st tanlashda nimalarga amal qilish lozimligi, do‘stlar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risida ham qimmatli hikmatlar keltirilgan. “Kalila va Dimna” kitobida do‘st tanlashda ehtiyotkorlikka amal qilish lozimligi, do‘stlikning jozibasi, vafo va sadoqat, halollik va samimiyat, bu dunyoda taqvo va zohidlikka rioya qilish, oxiratga esa rag‘bat bildirish va shunga o‘xshash fozil axloqiy tamoyillarni sevish, mazkur tamoyillarga zid bo‘lgan illatlardan esa nafratlanish kabi g‘oyalar ham o‘rin olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abbos Iqbol Ashtiyoniy. Sharh-i hol-i Abdulloh ibn al-Muqaffa. – Tehron: Asotir, 1382 h. sh. [2003–2004]. – 125 b. – URL: https://ge.nii.ac.jp/ncid/BB08817988.

ISSN 3060-5059 (Online)

2. Abu Rayhon Beruniy. Tahqiq ma li-l-Hind min maqula maqbula fi-l-aql av marzula. – 2-nashr. – Bayrut: Olam al-kutub, 1983. – 536 b. – URL: https://ablibrary.net/book_content/b/9839/5.
3. Ibn an-Nadim. Kitob al-fihrist. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, [s. a.]. – 545 b. – URL: https://www.noor-book.com/كتاب-المعرفه-دار-طبعه-النديم-لابن-الفهرست-pdf.
4. Muhammad G'ufroniy al-Xurosoniy. Abdulloh ibn al-Muqaffa. – Misr: Ad-Dor al-qavmiyya li-t-tibo'a va-n-nashr, [1965]. – 16, 635 b. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA50382784.
5. Soid al-Andalusiy. Tabaqot al-umam / nashrga tayyorlovchi L. Cheikho. – Bayrut: Al-Matbaa al-katulikiyya, 1912. – 158 b. – URL: https://www.noor-book.com/كتاب-طبقات-الامم-pdf.
6. Ибн аль-Мукаффа. Калила и Димна / пер. с араб., предисл. и коммент. Б. Шидфар. – Москва: Художественная литература, 1986. – 301, [2] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002140274.
7. Калила и Димна / пер. с араб. И. Ю. Крачковского и И. П. Кузьмина; под ред. И. Ю. Крачковского; предисл. Е. Э. Бертельса. – 2-е изд. – Москва: Издательство восточной литературы, 1957. – 284 с. – URL: https://kronk.spb.ru/library/1957-m-kid.htm.
8. Калила и Димна / пер. с араб. И. Ю. Крачковского и И. П. Кузьмина; статья и примеч. И. Ю. Крачковского. – Москва; Ленинград: Academia, 1934. – 368, [6] с., 1 л. ил. – URL: https://www.antiqueauction.ru/lot/1378-23-11_2.

.